

**PRODUKTIV LUG‘AT VA PRODUKTIV LUG‘AT SHAKLLANISHINING
PSIXOLINGVISTIK OMILLARI**
**PRODUCTIVE VOCABULARY AND PSYCHOLINGUISTIC FACTORS OF
PRODUCTIVE VOCABULARY FORMATION**

Mamirova Xayriniso Komiljon qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU satjyor-o‘qituvchisi

xayrinisomirova06@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada nutqiy faoliyatni tashkil etuvchi asosiy harakatdagi lug‘at, produktiv lug‘at, va uning shakllanishi haqida ma’lumot berilgan. Maqolaning boshida dunyo tilshunosligida ilk bor produktiv lug‘at hajmini aniqlashga qartilgan tadqiqotlar va produktiv lug‘atning shakllanish jarayoni haqida ma’lumotlar sanalgan. Produktiv lug‘atni aniqlash natijasi ikkinchi til o‘rganuvchilar uchun kerakli xulosalarni berishi ham aytilgan. Maqola so‘ngida produktiv lug‘atini aniqlash o‘zbek tilining semantik va funksional tabiatini ochish va o‘quv dasturlarini yaratish uchun muhim ekanligi haqida fikrlar sanalgan.

Kalit so‘zlar. Psixolingvistika, so‘z ma’nosи, til o‘zlashtirish, til o‘rganish, pragmatika, yozuv, ikkinchi til, tajriba-sinov, eksperimental, leksikon, shakl, ma’no, faoliyat, verbal, noverbal.

Abstract: The article provides information about the basic active vocabulary, productive vocabulary, and its formation, which make up speech activity. At the beginning of the article, for the first time in world linguistics, researches aimed at determining the volume of productive vocabulary and information about the process of formation of productive vocabulary are listed. It is also said that the result of identifying productive vocabulary provides the necessary conclusions for second language learners. At the end of the article, there are opinions that determining the productive vocabulary is important for revealing the semantic and functional nature of the Uzbek language and for creating educational programs.

Keywords. Psycholinguistics, word meaning, language acquisition, language learning, pragmatics, writing, second language, experimental, experiential, lexicon, form, meaning, activity, verbal, non-verbal.

Kirish.

Produktiv termini inglizchadan “productive” - “samarali, mahsuldor” degan ma’noni ifodalaydi. Produktiv lug‘at – shaxs fikrini ifodalashda, nutiy faoliyatida, yozma nutqida ma’lum bir vaziyatni mustaqil bayon qila olishi. Mana shu bayon etilgan nutqni tashkil qiluvchi so‘zlar shaxsning produktiv lug‘ati hisoblanadi.

Bolalar ijtimoy jarayonlar muhitida o‘zlarining nutq leksikonida mavjud o‘zlashtirilgan so‘zlardan qanday foydalana olishi va leksikondagi mavjud so‘zlar ba’zasini hisoblashga oid ilk tadqiqotlarni Erika Xoff va Letitia Naigleslarning ishlarida kuzatishimiz mumkin. Ular o‘zlaridan oldingi ishlarni tahlil qilish, qayta o‘rganib chiqish orqali so‘zga faqatgina ijtimoiy tomonlama yondashuvlarning o‘ziga yetarli emas, degan fikrga kelishadi. Va 2 yoshli 63 ta bolaning mahsuldor (produktiv) so‘z boligini aniqlash maqsadida emperik (kuztish) metodidan foydalanishdi. Ular o‘zlarining xulosalarida bu 63 ta bolaning faol so‘z boyligi ularning onalari tomonidan foydalaniladigan so‘zlearning foiz afzallikkari statistikasini aniqladilar.

Asosiy qism.

Leksikani o‘zlashtirish jarayoni aniq tajribadan o‘zlashtirish jarayonidir. Bolalar til o‘zlashtirishining samaradorligi suhbat payti(kontekst) sifatiga bog‘liq. Lekin shu paytgacha, til o‘zlashtirishda og‘zaki muloqat yoki eshitish, qaysi biri foydaliroq ekanligi aniqlanmagan.

Bolalar so‘z o‘zlashtirishda foydali bo‘lgan suhbatdan qanday natijaga erishadilar va bunday samarali so‘z o‘zlashtirish mexanizmining tabiatini qanday?

Yuqoridagi savollarga ikki turdag'i javoblarni ko‘rsatishimiz mumkin:

1. Birinchi qarashda suhbatning ijtimoiy – pragmatik jihatlariga va bolalarning ijtimoiy – kognitiv qobiliyatlariga e’tibor beradi. Ushbu nuqtai nazarga ko‘ra, bolalar so‘zlovchining diqqat markazidaligi va kommunikativ niyatini aniqlash orqali ular eshitgan so‘zlearning ma’nosini sezilarli darajada aniqlaydilar¹. Bolalar boshdan kechiradigan suhbatlarning muntazam va birgalikdagi tabiatni ushbu jarayonni ma’ruzachining kommunikativ niyatlarini shaffof qilish orqali qo’llab – quvvatlaydi².

2. Ikkinci qarash javob suhbatning ma’lumotlar bilan ta’minlovchi jihatlariga qaratilgan bo‘lib, so‘zlearning leksik mazmuni va sintaktik tuzilishi, shuningdek, unga hamroh bo‘lgan paralingvistik kontekst bolalar tomonidan tashqi so‘zni aniqlashda foydalanadigan muhim ma’lumotlarni taqdim etishini ta’kidlaydi³. (Carey, 1978; Gillette, Gleitman & Lederer, 1999; Gleitman, 1990;).

Produktiv lug‘atni aniqlash va uni takomillashtirishga oid tajribalar, asosan, ikkinchi til o‘zlashtiruvchilar uchun foydali xulosalarini berishi mumkin. Bu haqda Toshkent tibbiyot akademiyasi o‘qituvchisi Shoaziz Shorahimov va AQShning Illiyons universiteti dasturchisi Ulug‘bek Nurmuhammedovlarning “Assessing Learners’ Productive Vocabulary Knowledge: Formats and Considerations” (Til

¹ Baldwin. M. CriticalElements in the Healing Process. -New York. 2000.

² Bruner J.S. From communication to language: A psychological perspective. –Washington. 1975.

³ Carey.S. The child as word learner. Linguistic theory and psychological reality. –New York. 1978.

samaradorligini oshirishda lug‘at bilimini egallash: shakllar va mulohazalar) nomli maqolasida produktiv lug‘at bilan bog‘liq beshta testning mulohazalari keltirilgan.

- Produktiv lug‘at doim 3 asosdan:

1. Shakl – yangi so‘zni tanib olish: imlo va talaffuz;
2. Ma’no – idrok bilan bog‘liq: so‘zning sinonimlik, antonimlik va paronimlik munosabatlaridan xabardorlik;
3. Faoliyat – so‘zni nutqiy faoliyatda erkin qo‘llay olish mahorati.

Produktiv lug‘atni o‘zlashtirish bosqichma-bosqich jarayondir.

Masalan, AQSh universitetlaridan birida o‘qiyotgan O‘zbekistonlik xalaqaro magistrant o‘zidagi tildan foydalanish bilan bog‘liq ayrim muommolarini aytdi. Uning aytishicha, magistrant ingliz tilidagi ijtimoiy va ilmiy maqolalarni o‘qiganda tushunadi, audio yoki videolarni ham eshitganda idrok qila oladi, ammo maqola yozishda hamda seminarlarda nutq so‘zlashda mavzuga oid akadem darajadagi so‘zlarni tanlay olmaydi.

Produktiv lug‘at shakllanish jarayoni

Bolalarda produktiv lug‘lat ona va bola o‘rtasidagi takroriy suhbatlar (bu suhbatlar ma’lum bir vaziyat uchun ma’lum maqsadli lingvistik va ekstrolingvistik faoliyatda kechadi) davomida shakllanib boradi. Bolalar kattalarni, ayniqsa, onalarni kuzatish orqali mahsuldor lug‘atini boyitib boradi. Bunda kuzatilayotgan shaxs qayerda?, qanaday vaziyatda?, nimani? atayotganligiga qarab bolalar ham o‘zları uchun takrorlangan tanish vaziyatlarda o‘scha vaziyat uchun tegishli(tanish) bo‘lgan so‘zdan foydalanadilar. Va bu so‘zlar bolaning lingvistik ba’zasida vaqtinchalik xotiradan uzoq xotira maydoniga o‘rnashib, mustqail qo‘llanila boshlangandan keyin produktiv lug‘at tarkibidan o‘rin oladi. Yana bir qonuniyat produktiv lug‘at ma’lum so‘zlarni qayta-qayta eshitish, keyinchalik ma’lum vaziyatlarga moslab so‘zning tegishli ma’nolarini shu so‘zning shakliy-talaffuz qobig‘i bilan birga o‘zlashtirib boradi.

Bolalar o‘zlashtiradigan produktiv va perceptiv lug‘atning yuzaga kelishi juda ajoyib va qiziqarli vaziyatlarda kechadi. Tasavvur qiling, agarda siz o‘zbek tili o‘qituvchisi sifatida boshqa til vakiliga o‘zbek tilini o‘rgatmoqchi bo‘lsangiz, albatta, quyidagi qonuniyatlani o‘zingiz uchun belgilab olasiz:

- ✓ so‘zlovchi tinglovchi uchun ma’lum ma’no anglatuvchi so‘zlarning sinonimik qatoridan so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan shakli tanlanadi;
- ✓ tanlangan so‘z fonetik jihatdan maksimal darajada to‘g‘ri va vaziyatga moslangan intonatsiya bilan talaffuz qilinadi;
- ✓ leksik, morfologik, sintaktik jihatdan strukuraning eng sodda va to‘g‘ri varianti tanlanadi;
- ✓ tanlangan so‘z o‘z ma’nosida qo‘llaniladi va kinoya, ochirim, ko‘chma ma’nodagi shakllardan birmuncha uzoqlashadi.

✓ Yuqoridagilardan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, nutq har doim adresantga qarab o‘zgaradi. Ya’ni shaxs nutqi shakli, ko‘rinishi, tarkibi nutqi qaratilgan shaxsning yoshi, jinsi, ma’lumoti, ijtimoy roli va ijtimoiy o‘rnidan kelib chiqib tuziladi. Ya’ni bolaning yoshi kichik bo‘lgani sari kattalarning bolalarga qaratilgan nutqi ham soddalashib boradi. Bu hammamizda hech bir ongli nazoratsiz, avtomatik ravishda kechadi. Ya’ni qachonki til o‘zlashtirayotgan bolaning anglash qobilyati bilan so‘zlovchi nutqining soddalik darajasi tenglashmaguncha bu jarayon korreksiyalashish jarayonida bo‘ladi va qachonki tenglik yuzaga kelgandan keyin bolada nutjni tushunish va so‘zlarni o‘zlashtirish bosqichi boshlanadi. Bu holat shu joyida qotib qolmaydi, albatta, bolaning nutqiy ko‘nikmasi o‘sib borgani sari kattalarning bolalarga qaratilgan nutqi ham murakkablashib boradi. Masalan, kattalarning nutqidagi gaplar orasidagi pauzalar soni o‘rganilganda quyidagi natija ko‘rsatkichi belgilangan:

- Ikkı yoshli bolaga 93%;
- Besh yoshli bolaga 76%;
- Kattalarga 29%.

Yuqoridagi pauzalarni kattalar ongli ravishda tinglovchining tushunilish darajasiga qarab “men gapimning mana shu qismlarida pauza qilaman” degan aqliy tahlil qilinmaydi. Bu jarayon avtomatlashgan ravishda miyada to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshiriladi.

Xulosa.

Yuqoridagi nazariy fikrlar va ayrim o‘tkazilgan psixolingvistik tajribalarga asoslanib, quyidagi xulosalarni berishimiz mumkin.

1. produktiv lug‘atini aniqlash o‘zbek tilining semantik va funksional tabiatini ochish va o‘quv dasturlarini yaratish uchun muhim hisoblanadi. Va bu boradagi izlanishlar nima uchun bizning o‘quvchilarda perceptiv lug‘atning hajmi produktiv lug‘at hajmiga qaraganda yuqori ekanligini ham aniqlashda yordam beradi.

2. Leksikani o‘zlashtirish jarayoni aniq tajribadan o‘zlashtirish jarayonidir. Bu aniq tajriba bolaning ota-onasi yoki aka, opalari bo‘lish ehtimoli yuqori.

3. Produktiv lug‘atni aniqlash va uni takomillashtirishga oid tajribalar, asosan, ikkinchi til o‘zlashtiruvchilar uchun foydali xulosalarni berishi mumkin. Sababi barcha til o‘rganuvchilar o‘qish va eshitib tushinishdan ko‘ra yozish va og‘zaki fikr bildirishga qiynalishadi.

4. Til o‘zlashtirayotgan bolalar eng avvalida butun dunyo uchun umumiy mazmundagi leksik qatorni o‘zlashtirishadi. Bular:

“ota”, “ona”, “oila”, “farzand”, “kitob”, “maktab”, “o‘quvchi”, “vatan”, “suv” va “ovqat” kabi so‘zlardir.

5. Perseptiv lug‘at bazasi verbal va noverbal tajribalar asosida shakllanadi, shaxs biror narsa haqida o‘qiganda yoki eshitganda jarayonni idrok qilsa, tushuna olsa, demak, shaxs ongida bu jarayon bilan bog‘liq perceptiv lug‘at shakllangan.

6. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda esa predmetni yaxlit idrok etish qobiliyati ham buzilgan bo‘ladi. Ular predmetning ayrim belgilarini idrok etmaydilar.

7. So‘zning perceptiv tomoni inson umri davomida o‘zlashtirilib boriladi. Ya’ni shaxsning biologik hayotiy faoliyati to‘xtamaguncha, uning ongida bir so‘z ma’nosining shaxsiy ma’nolari rivoji ham to‘xtamaydi. Tilning leksik-semantik tizmi til birliklarining ayanan ekvovalenti emas, balki shaxs ongida mujassam bo‘lgan leksik mazmun, ya’ni ma’lum bir yoshdagi shaxsning yillar davomida korrelatsiya qilingan nutqi mahsulidir.

8. Psixolingvistik tadqiqotlar ko‘p ma’noli so‘z ma’nolarini miyada qayta ishslash omonimlarga qaraganda tezroq ekanligini ko‘rsatadi. Qaysi mexanizmlar hisobiga miya omonimlarga qaraganda polisemiyalarni tezroq o‘zlashtirilishiga imkon berishi to‘liq ma’lim emas.

9. Omonim so‘zlar miyadagi bir xil shaklga ega so‘zning boshqa ma’nolarni to‘sib qo‘yishi mumkin, natijada nutq egasi omonimlar talqinida chalkashlikka duch keladi.

10. Ko‘p ma’noli so‘zlar ustida o‘tkaziladigan psixolingvistik tadqiqotlar sog‘lom va nisbatan rivojlanishda ortda qolayotgan til o‘zlashtiruvchilarda so‘zlarning qayta ishlanishi qanday kechishini aniqlashdan tashqari, polisemiyalarning ma’nolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni chuquqrroq tushinish imkonini ham beradi.